

Parij Kommunasining ilk kunlardagi faoliyati.

106-guruh magistranti

Boltayeva Moxichexra

Ilmiy rahbar: To'raqulov B.T.

Insoniyat paydo bo'libdiki, juda ko'p hollarda xalq davlatlar, butun boshli tuzumlarning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladigan, ba'zi hollarda ularni yaratadigan kuch hisoblanadi. XVI asrdan Yevropada kapitalizmning paydo bo'lishi xalqning asosiy qismini tashkil etadigan ishchilar qatlamining ham o'z haq-huquqlarini taniy olish jarayoni boshlanishiga sabab bo'ldi. Bu esa Yevropaning qator davlatlarida kapitalistik inqiloblar bilan birga mehnatkash xalqning ko'tarilishiga olib keldi. XVIII asrda Yevropaning eng oldi davlatlaridan biri bo'lgan Fransiyada burjua inqilobi boshlandi. Bu inqiloblar davrida Fransiyada monarxiya va respublika tuzumlarining almashinuv jarayoni bo'lib o'tdi. Bu holat Fransiyaning tashqi holatiga, Yevropadagi roliga ta'sir ko'rsatdi. Fransiyaning 1870-1871 yillardagi qo'shni Prussiya bilan bo'lgan urushdagi mag'lubiyati shuningsiz ham sabr - kosasi to'lib turgan xalqning qo'zg'alishiga sabab bo'ldi. Oxir-oqibat "Parij nomli kichik shaharda "Parij Kommunasi" nomi bilan tarixda qolgan davlat paydo bo'ldi"¹. Bu Yevropa tarixidagi dastlabki oddiy mehnatkash xalq, ishchilarning davlati edi. Bu kunlar haqida tarixchi olimlardan biri o'zining "Parij Kommunasi. 1871 yil" asarida quyidagicha yozadi: "Parij 28-mart, 1871-yil. Quyoshli yorug' kun. Odamlar oqimi Grev maydonidagi ratusha (shahar markazi)ga qarab yig'ilib bormoqda. Bu maydonda 1871-yilning 18-martidagi inqilobining natijasi bo'lgan Kommunaning demokratlari kelgusi Parij taqdirini hal qilish uchun yig'ilishgan edi. Ratushaning markazi qizil matolar va gullar bilan bezatilgan tribunaning atrofida Milliy Gvardiyaning bataloni xalq

qurshovida turardi. Orkestr baland ovozda jo'rlik bilan Fransiyaning milliy iftixori hisoblanadigan "Marselyeza"ni kuylamoqda edi"².

72 kun yashagan Parij Kommunasi o'z faoliyati davomida bir necha islohotlarni o'tkazishga urindi. Bu islohotlarni o'tkazishda Kommuna uchun muhim davlat organi va uning tarkibidagi shaxslarni shakllantirish zarur edi. 1871-yilning 26-mart kuni Parij Kommunasi a'zolari uchun ovoz berish jarayoni bo'lib o'tdi. Ular 84 kishidan iborat edi. Ularning 65 tasi Parij inqilobining qatnashchilari bo'lib uzoq vaqt davomida qochib yurganlardan edilar³.

Bu kundagi ovoz berishlarning natijasi shuni ko'rsatdiki, Parij xalqi o'zi uchun haqiqiy "qizil xalq respublika"sini yaratishni istar va shuning barobarida Tyer boshchiligidagi "ko'k" respublikaga qarshi edilar⁴.

Parij Kommunasi haqida o'sha paytda burjuaziya gazetasi bo'lmish "Le Siecle" gazetasida quyidagicha fikr bildiriladi: "Yangi jahon tartiblari erasi kirib keldi"⁵, bu Parij Kommunasining naqadar kuchga ega ekanligidan dalolat berar edi. 28- mart kuni oqshomda Parij Kommunasining birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Majlis rahbarligiga yosh jihatdan ulug' bo'lgan 76 yoshli Sharl Belo boshchilik qildi. Shu kuni majlisda Belo o'zining ilk nutqini Kommunani to'liq erkinlik bilan ta'minlash kerakligi masalasi bilan boshladi. "Respublika 93 yil davomida xuddi askarday bo'ysunib, tashqi va ichki kurashlarda o'z erki bilan emas, aksincha, kimlarningdir qo'li ostida harakat qildi. Haqiqiy erkin Respublika uchun to'laonli erkinlik kerak. Tinchlik va mehnat. Mana biz qurayotgan respublika kelajagining kafolati. Bunday respublika kelajakda boshqa kam kuchga ega bo'lgan xalqlarning mehnatkashlari uchun suyanchiq va himoyachi bo'la olishi kerak. Bu respublika jahon respublikasining asosi bo'lmog'i lozim"⁶.

Rasmiy ravishda 26- mart kungi ovoz berish jarayonida Parij munisipaliteti majlisining tarkibi tasdiqlangan edi. Majlis davomida a'zolaridan biri Ed bu

² Парижская коммуна 1871 г.С.339.

³ Желубовская Э. А. Крушение второй империи и возникновение Третьей республики во Франции. М:изд-во АН СССР, 1956, С.318.

⁴ Парижская коммуна 1871 г., С.341.

⁵ "Le Siecle 28 mars 1871."Cherpusk maqolasi. (Elektron resurs)

⁶ Протоколы заседаний Парижской коммуны 1871 года.28-марта-30- апреля. Изд. Академии наук СССР, М.,1959, С.32.

nomdan butkul voz kechishni, uning o'rniga "Parij Kommunasini" nomini ishlatishni taklif qiladi. Uning taklifini qo'llab - quvvatlagan Rank: "O'tmishning barcha qoldiqlarini yo'q qilib, ulardan voz kechmog'imiz kerak",-deya fikr bildiradi. Hech qanday qarshiliklarsiz Edning bu taklifi bir ovozdan ma'qullandi⁷.

Kommunaning boshqaruv masalasi xususida uzoq muhokamalardan so'ng Belo quyidagicha yakuniy fikr bildirdi: "Kommuna mahalliy masalalar bilan, departament viloyatlarga daxldor masalalar bilan, hukumat esa xalqaro masalalar bilan shug'ullanmog'i kerak"⁸.

Majlisda fuqarolardan Kurne, Assi, Deleklyuzo, Berjero taklifi bilan davlat ahamiyatiga molik masalalarni tartibga solish uchun 10 ta vazirlik tashkil etildi. Ular quyidagilardir:

1. Ijroiya komissiyasi. Vazirlikning vazifasi Kommunaning dekretlarini amalga oshirish, boshqa vazirliklarning faoliyatini nazorat qilish kerak edi. Bu vazirlik Kommunaning ruxsatisiz hech qanday faoliyat olib bora olmasdi. U Ratushada joylashgan edi.

2. Harbiy komissiya- Komitetning milliy armiyasi o'rnini egallashi zarur edi. Bu komissiya harbiylarning qurol-yarog'lari, davlatning himoya masalalari bilan shug'ullanishi kerak edi. Asosiy shtab Vandom maydonida joylashgan bo'lib, versalchilarning hatti-harakatlarini kuzatishi yuklangan edi. Bu komissiya Harbiy Vazirlik vazifasini ham bajarishi kerak edi.

3. Oziq-ovqat komissiyasi- Parijdagi barcha oziq-ovqat muammolarini hal qilish, Parij do'konlaridagi barcha oziq-ovqat mahsulotlarining miqdorini anilqash, ularning narx-navosini nazorat qilish kabi vazifalar yuklatiladi.

4. Iqtisodiyot komissiyasi- Parij davlatining byudjetini yangi qonunlar asosida tashkil qilish, moliyaviy masalalar, shaxardagi kvartira xaqlari, to'lovlarning muddatlarini nazorat qilish vazifalari yuklatildi. Bundan tashqari komissiya soliqlarning oshib ketmasligini ham taminlashi kerak edi.

⁷ «Протоколы» I-том.34-бет.

⁸ O'sha adabiyotda. 30-bet.

5. Adliya komissiyasi-Sud ishlariga rahbarlik qilish, qonun kuchi bilan demokratiyani taminlash vazifasi yuklatiladi.

6.Umumiy xavfsizlik kommissiyasi-uning ish doirasi-politsiya edi. Unga xalqning umumiy xavfsizligi va tartib saqlash vazifasi yuklatiladi. Komissiya respublikaga qarshi kuchlarni va shubxali shaxslarni qo'lga olish bilan shug'ullangan.

7.Mehnat,sanoat va savdo almashinuvi komissiyasi- uning ish doirasi asosan jamoat ishlari vazirligi va savdo vazirligi faoliyatini olib borishdan iborat edi. Komissiya bundan tashqari aholi orasida ish va mehnat haqida targ'ibot ishlarini olib borish ham yuklatiladi.

8.Jamoat ishlari komissiyasi-bu komissiyaga muhim xizmatlar-pochta,telegraf,yo'l aloqasi kabi xizmatlarni tashkil qilish, nazoratga olish vazifalari bilan shug'ullanishi kerak edi. Bundan tashqari aynan shu komissiya temir yo'l kompaniyalarining faoliyatini nazorat qilishi kerak edi.

9.Tashqi ishlar komissiyasi-kichikkina davlatning aloqalarini rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanishi kerak edi. O'zining targ'iboti bilan birga Fransiyaning boshqa hududlarini ham o'z tarkibiga kiritishi kerak edi.

10.Marifat komissiyasi-uning vazifasiga xalq talimi vazirligining vazifalari kirgan. Komissiya bepul va sifatli ta'lim bilan shug'ullanishi kerak edi. Stipendiyalarning miqdorini oshirilishi aynan shu komissiya faoliyatining natijasi bo'ldi.⁹

Bundan tashqari Kommuna atrofdagi barcha hududlarni nazoratga olish,ularni boshqaruv ishiga tortish,mahalliy masalalar va fuqarolik holatlari vazifalarini bo'lib berish maqsadida 1871-yil 30-martda Parij atrofidagi okruglarning mer(kichik hudud hokimlari)larni Kommunaning azosi etib tayinlaydi.¹⁰

Boshqaruvning barcha tomonlarini mukammal ishlab chiqishga harakat qilgan Kommuna nima uchun mag'lubiyatga uchradi. Kommuna azolari o'z vaqtida dunyoni tinchlik va mehnat bilan ushlab uchun, zabt etish uchun harbiy

⁹ Протоколы заседаний Парижской коммуны 1871 года.28-марта-30- апрел.Издательство Академии наук СССР.Москва-1959.32-бет.

¹⁰ «Протоколы»1-том.49-бет.

kuch kerak ekanligini tushunishganmikan? Albatta Kommuna xuddi birlik sifatida ko'rinsada ular orasida ham tuli fikrlilik mavjud edi. Aynan harbiy kuch masalasida bu mavjud edi. Turli fikrlilik ilk majlisdayoq ko'zga tashlanadi. Neoyakobinistlar bilan yaqin bo'lgan Paskall Grusse Kommunani harbiy majlisga aylantirishning uning majlislaridagi qarorlar,so'zlar va uning faoliyati sir tutilmog'i kerak deya taklif bildirdi. Bu taklif Kommunadagi bir necha blankistlar tomonidan qo'llab quvvatlangan bo'lsa, qarshi fikrlar prudonistlar qatorida bo'lgan Teys, Lefranso Arnu, Jurdlar tomonidan bildiriladi. Ular oshkoralik prinsipining ximoyachilari sifatida suistemolikni chegaralash uchun eng to'g'ri yechim sifatida bu taklifni qo'llab quvvatlashni istashmaydi. Lekin Arnu, Teys va Jurdlar erkinlikni yovuz kuchlarga qarshi kurashib jang bilan zabt etmoqlik va kelgusida saqlab qolmoq uchun ham harbiy kuch zarur suyanchiq ekanligini tushuna olishmaydi.¹¹

Kommuna o'zining ilk faoliyat kunlarida ko'plab islohotlar qilishga urinsada,ularning amalga oshirilishi jarayonidagi xatolar, shaxar aholisining barcha qismi,asosan, burjuaziya,axolining o'ziga to'q qismi qo'llab quvvatlamaganligi,Tyer boshchiligidagi Versalchilarning harakatlari tufayli Parij Kommunasi halokatga yuz tutdi. Parij mehnatkash aholisining 1871-yildagi mart-may oylaridagi qahramonona tarixiy jasorati Marks so'zi bilan aytganda "aldov imperiyasi bo'lgan ikkinchi imperiyaga Parij xalqining xaqiqiy javobi bo'la oldi"¹² . Parij Kommunasi nafaqat mehnatkash fransuzlarning mardonavorligi timsoli bo'la oladi, bundan tashqari Kommuna jahon mehnatkashlarining to'liq siyosiy va iqtisodiy erkinlik uchun kurashi uchun bir namuna bo'la oldi. Kommunaning tarixiy xizmatlaridan biri bu Fransiyada monarxiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan barham berganligi,respublika tuzumining Fransiyada butkul qaror topishini taminladi.

¹¹ Парижская коммуна 1871 г.349-бет.

¹²Энна Адольфовна Желубовская Крушение второй империи и возникновение третьей республики во Франции.М:изд-во АН СССР 1956.519-бет.

